



BO'LAJAK PEDAGOGLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA O'ZIGA BO'LGAN ISHONCH HISSINI KASBIY MOTIVLARINI, KASBIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI, SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK TOMONLARI

Ganiyeva Gulandon Ibragimovna

Namangan davlat universitetining Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha) yo'nalishi 1-kurs magistranti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7745736>

ARTICLE INFO

Received: 06th March 2023

Accepted: 16th March 2023

Online: 17th March 2023

KEY WORDS

Pedagogik mahorat, o'qituvchi, kasbiy kompetentlik, kreativlik, ijodkorlik, o'z-o'zini anglash, o'ziga ishonch, pedagogik vazifa, qobiliyat.

ABSTRACT

Ushbu maqola bo'lajak pedagoglarni o'z kasbiga bo'lgan yuksak ishonch va hurmat hissini shakllantirish maqsadida yozilgan. Bunda har bir pedagogning o'z kasbiy fazilatlarini anglashi va o'z ustida ishlashi hamda pedagogning kompetentligi va kreativligi, pedagogning kasbiy professionalligi hamda uni innovatsion faoliyatda namoyon bo'lishi haqida ma'lumotlar berilgan. Maqola matnida pedagoglarda shakllangan kasbiy psixologik xususiyatlar, kasbiy motivlar, o'ziga bo'lgan ishonchni rivojlantirishning psixologik tomonlari haqida keng fikr yuritilgan.

O'qituvchilik – katta san'atdir. Bu san'atga pedagog osongina, o'z-o'zidan erisha olmaydi. Shuning uchun, o'qituvchilik kasbiga, ya'ni sog'lom avlod uchun chinakam murabbiy bo'lishga havasi, ishtiyoqi zo'r, zamon talablarini tez va chuqur tushunadigan, o'zining ilmiy, ijtimoiy-siyosiy saviyasini, pedagogik mahoratini izchillik bilan oshirib boruvchi, mustaqillik g'oyasi va mafkurasi bilan puxta qurollantirilgan, haqiqiy vatanparvar va mehnatsevar kishilargina erisha oladilar.

Bugungi kunda ta'lim tizimida aksariyat talabalarning ta'lim olishga nisbatan qiziqishi pasayib ketganligi sababli, dars mashg'ulotlarini yangicha qarashlar, innovatsion texnologiyalar, psixologik treninglar hamda kredit-modul tizimida, mediata'lim shaklida olib borilishini zamon talab qilmoqda. Talabalarni dars mashg'ulotlariga qiziqtirish pedagog tomonidan chuqur bilim, pedagogik mahorat, qobiliyat, kreativlik, kasbiy kompetentlik va albatta o'qituvchini o'ziga bo'lgan ishonchini talab qiladi.

Shu sababli pedagog mutaxasislarga interfaol usullarda dars mashg'ulotlarini olib borishning zamonaviy texnologiyalari kurslari o'tkazilib professional interaktiv metodlar, treninglar o'rgatilib borilmoqda.

Bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda avvalo nazariy, amaliy bilimlarga egalik, uslubiy yondashuv, hamda maxsus tayyorgarlik interaktiv dars usullarini takomillashtirishni talab qiladi. Kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar va qobiliyat, mustaqil izlanish zamonamizning asosiy muammolaridan biri bo'lib, bugungi kun pedagoglarining muvaffaqiyati uchun zarurdir hisoblanadi.



Pedagoglar uchun o'quv mashg'ulotlarida yetishmayotgan asosiy omillardan biri bu **pedagogning kompetentligi va kreativligi** sanaladi.

Yangi zamon har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda.

"Kompetentlik" atamasi ta'lim tizimiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan bo'lib hozirda pedagoglar uchun zarur bo'lgan bilim va malaka sifatida qo'llanilishi talab etilmoqda.

Kompetentlik "qaltis va noqulay vaziyatlar, kutilmagan hollarda o'qituvchining o'zini qanday tutishi, o'ziga bo'lgan ishonchi, muloqotchanligi, qarama-qarshi g'oyalar, fikrlar bilan o'zaro shaxsiy hamda guruhiy munosabatlarda kreativ yo'l tutishi, ma'lum bir noaniq, yangi vazifalarni bajarishda, ziddiyatli ma'lumotlardan foydalanishda shuningdek, murakkab vaziyatlarda to'g'ri harakatlanish" ni anglatadi.

Kasbiy kompetentlik pedagog tomonidan faqatgina psixologik bilim va malakalarning egallanishini emas, balki mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ-pedagogik bilimlar, innovatsion g'oyalar hamda harakatlarning mukammalashitirilishini va o'zlashtirilishini nazarda tutadi.

Bir guruh insonlar bor-ki, ular puxta egallagan o'z psixologik bilimlarini har qanday sharoitda imkon qadar maqsadga muvofiq qo'llay biladilar, psixologik professional kompetentliklarini doimiy ravishda rivojlantirib boradilar.

O'qituvchi pedagogik faoliyati jarayonida nafaqat o'zini kompetentlik xis qilishi, balki atrofdagilarga bu xususiyatini namoyish qilishi, isbotlashi ham zarur. U kompetentli mutaxassis sifatida tan olinishi kerak. Zamonaviy ta'lim konsepsiyasi xuddi shu jihatga urg'u bermoqda, e'tibor karatmoqda.

Shunday qilib, real vaziyatlarda, pedagogik jarayonlarda o'qituvchi kompetentligi o'quvchiga maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatib, unda ijobiy motivatsiyani hosil qilishi ham yoki aksincha, psixologik tormoz vazifasini bajarib, bola kompetentligi rivojiga to'skinlik qilishi ham mumkin.

Xullas, kompetensiyaviylik keng tushuncha sifatida pedagog, o'qituvchining o'zining professional, kasbiy vazifalarini bajarishga bo'lgan nazariy va amaliy tayyorligini, sub'yekt sifatida tashqi olam, kishilar bilan munosabatlarini tizimli tog'ri yo'lga qo'yishini anglatar ekan, avvalo ta'lim jarayonida mazkur xususiyatni qaror toptirish oldimizda turgan muhim va dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Odatda o'qituvchi va pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy izlanish loyihalarini amalga oshirishi hamda ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi. O'qituvchi o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida o'z ustida ishlash, izlanish, o'qib-o'rganish, orqali shakllanib, sekin-asta takomillashib, tajribalarda rivojlanib boradi. Pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi.

Bo'lajak o'qituvchi o'zini o'zi tarbiyalashi, o'ziga bo'lgan ishonch kasbiga bo'lgan faxr va iftixor tuyg'ularini o'zida shakllantirish uchun, avvalo o'qituvchilik kasbining mohiyatini chuqur anglab yetishi, o'zi mukammal o'rganishi, kasbidagi yutuq va kamchiliklarni ko'ra



bilishi kerak. Bu ayni damda o'z-o'zini o'rganish va boshqa odamni tushunish uchun ham zarur. Pedagog boshqalarning yutuqlarini o'rganmasdan va o'zini boshqalar bilan solishtirmasdan turib o'z-o'zini o'rganish mumkin emas. O'z-o'zini anglash va o'zini o'zi baholash xususiyati boshqa odamlar bilan munosabatlar jarayonida shakllanadi.

Qachonki pedagog o'z kamchiliklarini anglab uni to'g'ri bartarf etib, o'z ustida ishlasa, yutuqlarga erishish uchun izlansa, yutuqlarga erishsa o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi. O'ziga bo'lgan ishonchi ortganda kasbining ustasi bo'la oladi. O'z kasbining ustasi o'z-o'zini o'rganadi va o'z oldiga pedagogik vazifalar qo'ya oladi.

Pedagogik vazifa-bu nafaqat ixtiyoriy fazilatlar, qobiliyatlar doirasini ko'rsatish, balki ularning ichki xususiyatlarini ham ochib berishdir.

O'qituvchi pedagog eng avvalo o'zida qanday pedagogik qobiliyat borligini bilishi kerak. Zamonaviy o'qituvchi pedagogik faoliyatda muhabbat bilan chin yurakdan ishlaydi va hech qanday rasmiyatchilikka toqat qilmaydi. O'qituvchi o'z kasbini sevishi, o'zining g'oyaviy-siyosiy saviyasini muntazam oshirib borishi va ko'lamini kengaytirib borishi uning kasbiy formulasi hisoblanadi.

O'qituvchida shaxsiy psixologik xususiyatlar va ijodkorlik ijodiy o'zini o'zi anglashning turli shakllarida namoyon bo'ladi. O'z-o'zini anglash - bu shaxsning individual ijodiy afzalliklarini qo'llash sohasi. "O'qituvchi" kasbining vakillari o'ziga xos xususiyatlarga ega: har bir o'qituvchiga xos bo'lgan shaxsiy fazilatlar, pedagogik qobiliyatlari, ko'nikmalari va qobiliyatlari ega bo'ladi. Bu qobiliyatlarini shakllantirish va takomillashtirish bugungi zamon talabidir.

Mashhur pedagog Yan Amos Komenskiy "O'qituvchilik yer yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb" ekanligini ta'kidlaydi. O'qituvchi obrazini tasvirlar ekan, uning shaxsida quyidagi xususiyatlar bo'lishi maqsadga muvofiqligiga urg'u beradi: vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o'z ishini sevuvchi, o'quvchilarga otalaridek muomala qiluvchi, ularda bilimga havas uyg'otuvchi, o'quvchilarni o'z ortidan ergashtiruvchi va o'z e'tiqodiga ega bo'lgan shaxs.

Darhaqiqat, pedagog yuqorida keltirilgan pedagogik-psixologik xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirsa, o'zida shakllantirsa ideal pedagog, zamonaviy o'qituvchi bo'la oladi.

Respublika ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlash ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi, pedagog, ishlab chiqarish ustalarining ma'naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga bog'liqdir.

Ko'rinib turibdiki, har bir o'qituvchi o'z fanlari buyicha tegishli ma'lumot egasi, yuksak kasbiy tayyorgarlik va yuqori axloqiy fazilatlar sohibi bo'lishi kerak. Dars berish san'atini mukammal egallagan o'qituvchi uyushtirgan o'quv mashg'uloti chuqur bilim berish vositasi bo'lishi bilan birga, mustaqil O'zbekistonning ravnaqi, ertangi kunga bo'lgan ishonchi, xalqimizning aql-zakovati va mehnatining nimalarga qodirligi, jamiyatning munosib fuqarosi va sodiq quruvchisi bo'lish uchun nimalar qilish zarurligini ko'rsatuvchi ko'zgu bo'lib xizmat qilishi kerak.

Yangi zamon o'qituvchisi-yuksak axloqiy fazilatlariga ega, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs sifatida kasbiy professionalligini, kreativligi va ijodkorligini hamda o'ziga bo'lgan ishonchini, kompetentligini innovatsion faoliyatda namoyon qilib, rivojlantirib borishi kerak. Bu zamon talabidir.



References:

1. G'oziyev E.G'. Oliy maktab psixologiyasi. -T.: Ukituvchi, 1997. – 197 b. K.B.Qodirov “Kasb tanlashga tayyorgarlikning psixologik jihatlari va kasbiy tashxis” Toshkent, 2001.
2. Ushinskiy K. D. Izbranno'ye pedagogicheskiye sochineniyaG'Chyelovek kak predmet vospitaniya. Opo't pedagogicheskoy antropologii (1861). — M.: Izd-vo Akademii nauk RSFSR, 1945.
3. Ibragimov X.I. Pedagogik psixologiya.T.:2009
4. N.Islomova.Ijtimoiy psixologiya.T.: 2013
5. Shakarboyeva S. Bo'lajak o'qituvchilarda o'z ustida ishlash faoliyatini tarbiyalashning ijtimoiy-psixologik jihatlari //Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii. – 2022. – T. 2. – №. 6
6. Ishtixon .uz.<https://ishtixon .uz.https uz>node>